

BADIIY TARJIMADA STILISTIK VOSITALARNING O'RNI**Nasriddinov Dilshod A'zamkulovich**

Xalqaro Nordik universiteti dotsenti, (PhD)

E-mail: dilshodnasr@gmail.com**Ro'zmetova Maftuna Saparboyevna**

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

2-bosqich magistranti

E-mail: maftunarusmetova99@gmail.com

Annatsiya: Ushbu maqolada badiy tarjimada eng muhim bo'lgan stilistik vositalarning o'zbek tilidagi tarjimasida qanday ma'nolarni kashf etishi tahlilga tortilgan. Shuningdek, stilistik vosita turlariga izoh hamda ularni mazmun mohiyatini asoslovchi misollar ikki (o'zbek va ingliz) tillarida keltirilgan.

Kalit so'zlar: alliteratsiya, anafora, ironiya, metafora, metonimiya, sinekdoha.

Abstract: This article is devoted to analyzing the most important stylistic devices in literary translation, which discover meanings in translation into Uzbek. In addition, the meanings of stylistic devices are given, and explained the meaning of types of stylistic devices and also justified their content with examples in two languages (Uzbek and English).

Keywords: alliteration, anaphor, irony, metaphor, metonymy, synecdoche.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу важнейших стилистических приемов художественного перевода, раскрывающих смыслы при переводе на узбекский язык. Кроме того, дано и объяснено значение типов стилистических приемов, а также обосновано их содержание примерами на двух языках (узбекском и английском).

Ключевые слова: аллитерация, анафора, ирония, метафора, метонимия, синекдоха.

Adabiyotda nutqning mazmuniga yordamchi ma'no, g'oya yoki tuyg'u berish uchun turli xil usullardan foydalaniladi. Ba'zan so'z normal ma'nosidan ajralib chiqadi yoki ibora undagi so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga asoslanmagan maxsus ma'noga ega bo'ladi. Shu kabi vositalar badiiy stilistik (tasviriy) vositalar deb ataladi. Badiiy tasviriy vositalar adabiy asarning go'zal, jozibali va kitobxonni jalb etuvchi qilishiga katta hissa qo'shadi.

Stilistik vositalar deganda biz yozuvchilar tomonidan o'quvchilarda ma'lum hissiyotlar yaratish uchun ishlatiladigan metafora, kontrast, ritorik savollar, yumor, shubha va boshqalar kabi yozma elementlarni tushunamiz. Ular yozuvchilar uchun kommunikativ maqsaddagi ko'plab cheklovlarni chetlab o'tish vositalaridir. Strukturaviy qurilmalar singari, bu stilistik qurilmalar matn tuzilishining har bir darajasida mavjud. Adabiyot madaniy, axloqiy va ijtimoiy vazifalarni bajaradigan fandir. Bundan tashqari, inson ko'ngliga ta'sir etadi. Adabiyot san'atkor qo'llagan stilistik vositalar orqali go'zallik tuyg'usini namoyon etadi.

Badiiy stilistik vositalar ingliz tilida ham o'zbek tilida ham mavjud. Dissertatsiyaning obyekti ingliz tilida bo'lganligi sababli bu bo'limda ingliz tilidagi badiiy stilistik vositalar haqida to'xtalangan. Shu o'rinda, badiiy stilistik vositalarning turlari va ularning tavsifi bilan kengroq tanishib olish lozim.

Alliteratsiya – bu bir xil tovushlarning takrorlanishi bo'lib, ko'proq she'r va nasriy asarlarda bir xil undoshlarning takror qo'llanilishidan hosil bo'ladi. Bu takrorlanish natijasida tovushlarning ohangdorligi kuchayadi va bu alliteratsiya deb ataladi. "She'rning o'quvchi tomonidan ko'klarga ko'tarilishiga sabab bo'luvchi omillardan biri alliteratsiyadir. She'riy nutqda misralar, undagi so'zlar hamda bo'g'inlar boshida yoki oxirida bir xil undosh tovushlarning takror qo'llanishi alliteratsiya deyiladi."¹ Demak, asarlarda, ayniqsa she'riy asarlarda alliteratsiyaning qo'llanilishi o'quvchilarda bu asarga bo'lgan qiziqishning ortishiga sabab bo'ladi.

Alliteratsiya hodisasiga ingliz tilidagi misollar bilan tanishamiz:

-sweet smell of success,

¹ M.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazovat. Matn lingvistikasi Toshkent-2020. 68 b.

-a dime a dozen,
-bigger and better,
-jump for joy

O‘zbek shariyatidan alliteratsiyaga misol:

Qaro qoshing, qalam qoshing,
Qayiq qayrilma qoshing, qiz,
Qilur qatlimga qasd, qayrab
Qilich qotil qaroshing, qiz...¹

Anafora (takror) – bir xil so‘zning she‘rning barcha misralari boshida takrorlanib qo‘llanilishi. Anaforaga ingliz adabiyotidan misol:

Mad world!

Mad kings!

Mad composition!²

O‘zbek adabiyotidan misol:

Endi odam quldek sotilmas,
Endi odam o‘tga otilmas,
Endi unga qafas bo‘lmas jon,
Endi dunyo bo‘lmaydi zindon.³

Ironiya (Kinoya) — uslubiy vosita; ma‘qullagandek yoki rizo bergandek bo‘lib, rad etish, istehzoli kulish. Kinoyada so‘z yoki ifoda nutqda asl ma‘nosiga teskari, hatto uni rad etuvchi mazmun kasb etadi. Kinoya uslubiy vosita sifatida majoziy so‘zlar orqali piching va istehzoni ifodalaydi. Komiklikning bir turi bo‘lgan kinoyada kulgililik jiddiylik niqobi ostiga yashirinib, o‘zida so‘zlovchidagi ustunlik yoxud gumonsirash tuyg‘usini aks ettiradi. Kinoya xalq og‘zaki ijodida ham, yozma adabiyot namunalarida ham keng qo‘llanadi. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Gulxaniyning "Zarbulmasal", Abdulla Qahhorning "Mayiz yemagan xotin" va boshqa

¹ Erkin Vohidov Qaro qoshing, (she‘r) «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2005

² Uilyam Shekspir, "*Qiroi Jon*", Jahon adabiyoti jurnali. 'Cho'lon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2008 58 b.

³ Hamid Olimjon, "Zaynab va Omon" Toshkent-1981. "O'qituvchi", 74 b.

asarlarda kinoya jonli va konkret badiiylik yaratishga xizmat qilgan.¹ Demak, kinoya - bu aytilgan narsa va haqiqatda nazarda tutilgan narsa o'rtasida ziddiyatni ifodalovchi stilistik vosita hisoblanadi. Bu haqiqat va nutq o'rtasidagi nomuvofiqlik, qarama-qarshilik bilan tavsiflanadi.

Ingliz tilidan misollar:

- *His argument was as clear as mud.*

-The two identical twins were arguing. One of them told the other: "You're ugly."

-The thieves robbed the police station.

O'zbek tilida misollar:

- "Nyuton" bo'lsang ham mayli edi, fizikadan gap ochishga.

- Xonimning "nozik" qo'llariga og'irlik qilmasmikan?!

Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho'kiz edi?²

Metafora (yunonchadan „ko'chirish“) - so'zni ko'chma ma'noda qo'llash san'ati bo'lib, u narsalarning umumiyligi ya'ni o'xshashligi asosida hosil bo'ladi.

Masalan, Oltin qo'llar, po'lat qanotlar, ishning ko'zi.

Metaforadan foydalanish orqali yozuvchi asarning badiiyligini oshirishi va unga jozibadorlik baxsh etishi mumkin. Adabiyotshunos Bahodir Sarimsoqov "Badiiylik asoslari va mezonlari" kitobida metafora haqida shunday deb yozadi: "Badiiy asardagi kechinma shiddatini oshirish metaforik obrazga xos. Metafora ijodkorning u yoki bu narsa, voqea-hodisaga nisbatan o'zining salbiy munosabatini to'g'ridan-to'g'ri ifodalash uchun ham xizmat etadi"³

O'zbek adabiyotidan misol:

Sheryurakli bu Lochin
Qoqib qanot-qulochin,
Quzg'unlardan asradi
Elning xotin-xalajin.⁴

¹ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, birinchi jild, Toshkent- 2000-yil, 258 b.

² Abdulla Qahhor "O'g'ri" hikoyasi <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-o-g-ri-hikoya>

³ Bahodir Sarimsoqov "Badiiylik asoslari va mezonlari" <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/25-adabiyotshunoslik>

⁴ Maqsud Shayxzoda "Kapitan Gastello" G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014. 78 b.

Ingliz adabiyotidan misollar:

All the world's a stage,

And all the men and women merely players;

They have their exits and their entrances;¹

“The sun was a toddler insistently refusing to go to bed: It was past eight-thirty and still light.”²

Metonimiya - bu narsa yoki tushuncha o'z nomi bilan emas, balki shu narsa yoki tushuncha bilan chambarchas bog'liq bo'lgan narsa nomi bilan ataladigan nutq shaklidir. Meotnomiyaga misollar:

Po'lat qush ham qomatin rostlab

Bulutlarni etar tumtaraq.

Fuzuliyini oldim qo'limga,

Majnun bo'lib yig'lab qichqirdi...³

Ingliz tilidan misollar:

The pen is mightier than the sword.

Sinekdoxa – badiiy stilistik vosita bo'lib, biror narsaning bir qismi orqali butun qismini yoki aksincha butun qism orqali bir qismini ifodalash uchun foydalaniladi. Masalan, "tirnoqqa zor bo'lmoq" iborasida tirnoq (qism) so'zi bola, farzand (butun) ma'nosida, "besh qo'l barobar emas" iborasida esa qo'l (butun) so'zi barmoq (qism) ma'nosida qo'llangan. Bu vositani qo'llash orqali nutqning jozibadorligi va ta'sirchanligini oshirishga erishish mumkin.

Ingliz tilidan misollar: Part of something is used to refer to the whole thing - *A hundred head of cattle* (using the part *head* to refer to the whole animal)

The whole of a thing is used to represent part of it - *The world treated him badly* (using *the world* to refer to part of the world)

A general class of thing is used to refer to a smaller, more specific class - *The good book* (referring to the Bible or the Qur'an).

¹ Uilyam Shekspir "As you like it", <http://darkwing.uoregon.edu/%7Erbear/shake/ayli.html> (2 of 88).

² John Green "Fault in our stars". DUTTON BOOKS | An imprint of Penguin Group (USA) Inc.-2008. P-25.

³ Hamid Olimjon, "Zaynab va Omon" Toshkent-1981. "O'qituvchi", 68 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Qahhor “O‘g‘ri” hikoyasi <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-o-g-ri-hikoya>
2. Bahodir Sarimsoqov “Badiiylik asoslari va mezonlari” <https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/25-adabiyotshunoslik>
3. Erkin Vohidov Qaro qoshing, (she‘r) «SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA AKSIYADORLIK KOMPANIYASI BOSH TAHRIRIYATI TOSHKENT – 2005
4. Hamid Olimjon, “Zaynab va Omon” Toshkent-1981. “O‘qituvchi”, 280 b.
5. John Green “Fault in our stars”. DUTTON BOOKS | An imprint of Penguin Group (USA) Inc.-2008. P-255.
6. Maqsud Shayxzoda “Kapitan Gastello” G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014. 145 b.
7. M.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, M.Saparniyazovat. Matn lingvistikasi Toshkent-2020. 130-b.
8. Uilyam Shekspir “As you like it”, <http://darkwing.uoregon.edu/%7Erbear/shake/ayli.html> (2 of 88).
9. Uilyam Shekspir, “*Qirol Jon*”, Jahon adabiyoti jurnali.’Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2008. 255 b.
10. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, birinchi jild, Toshkent- 2000-yil, 258 b.